

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESINIŇ
QARARI**

2023 - yil 17 - mart

97-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani "Shag'alako'l" MFY
hududidan doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda "2023-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-465-sonli qarori ijrosi yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasining 2022-yil 30-dekabrda 2215-01/07-sonli buyurtma xati va Xo'jayli tumani hokimligining 2023-yil 3-fevralda 465/01-sonli xatini inobatga olib, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunlariga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xo'jayli tumani "Shag'alako'l" hududidagi tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan 0,20 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUKga maktabgacha ta'lim tashkiloti qurilishi uchun doimiy foydalanish huquqi asosida qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda ajratib berilsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUK (I.Niyazov)ga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda:

- ajratilgan yer maydoniga qurilish loyiha hujjatlarini belgilangan tartibda

rasmiylashtirish;

- ajratilgan yer maydonida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;

- ajratilgan yer uchastkasida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash vazifalari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (U.Jalelov) mazkur qarorga muvofiq qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda yer fondiga tegishli o'zgartirishlar kiritilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari E.Atashov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**




F. Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023 yil 17 martdagi
97-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani "Sha'galako'l" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi tuman hokimligi zahira yerlaridan yangidan "Maktabgacha talim muassasi" binosi qurilishi uchun doimiy foydalanish huquqi asosida ajratib berilishi rejalashtirilgan yer uchastkasining

T A R X I: M-6 1:1000



Yer uchastkasi haqida qisqacha ma'lumotlar: SHag'alako'l MFY joylashgan

WGS-84 Koordinatasi

1. 42°24'52.55"C 59°27'48.58"B 3. 42°24'54.64"C 59°27'49.21"B
2. 42°24'53.67"C 59°27'47.45"B 4. 42°24'53.67"C 59°27'50.16"B

Yer uchastkasining maydoni: Jami: 0.20 ga

Jer fondi: Tuman zaxira yer

Qaysi maqsadda foydalansa bo'ladi: Bolalar boqchasini qurish

Jer turi: Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar

Ball boniteti: Baholanmagan

Kadastr nomeri: 23:09:10:11:03:0115